



KOMMUNAL XO'JALIK CHIQINDILARINING ZARARLI TA'SIRI

A.A.Maxmudov

(FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi)

Maqolada: *zararli moddalarning atrof muhitga salbiy ta'siri, sanoat ob'yektlarining atrof muhitga salbiy ta'siri, suv zahirasidan noto'g'ri foydalanish masalalari yoritilib, ushbu omillarning inson solomatligiga salbiy ta'siri, kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari va ushbu tadbirlardan kutilayotgan natijalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *atmosfera zararli moddalar, ekologiya, tabiat landshaftlari, ftorli birikmalar.*

Atmosfera xavosiga sanoat korxonalari va turar joy kommunal xo'jalik chiqindilari jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda zaharli moddalarning miqdori dunyoning 200 dan ortiq shahrida me'yordan ancha oshib ketgan. Atmosferada azot va uglerod oqsidlari oshib bormoqda.

Xususan, "Tojik alyuminiy kompaniyasi" (TALCO) Davlat unitar korxonasi yiliga 800 ming tonna birlamchi alyuminiy ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, yiliga atmosferaga 400-500 tonna ftorli vodorod va boshqa zaharli gazlarni chiqarmoqda. Bu esa atmosfera havosi va atrof-muhit ekologik tizimining buzilishiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida Surxondaryo viloyatining Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan Sariosiyo, Uzun, Denov va Oltinsoy tumanlari aholisining sog'ligiga, shuningdek, o'simlik va xayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda "Talko" faoliyati natijasida Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlar hududida atmosferadagi ftorli vodorodning miqdori yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyadan o'rta hisobda 1,8-2 baravar, yoz oylarida esa hatto 3-4 baravar oshib ketyapti

- Mazkur hudud iqtisodiyoti izdan chiqib, qishloq xo'jaligiga juda katta zarar yetayapti. Atmosfera, tuproq suvning ifloslanishi natijasida bog'lar barbod bo'lmoqda, ekinlarning hosildorligi keskin pasayib ketmoqda. Olinayotgan hosil, masalan, meva va sabzavotlar tarkibida ftoridlar to'planishi yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyadan 11-19 baravar, bug'doyda 5-6,5 baravar yuqori.

Chorvachilik ham tanazzulga yuz tutdi. Tadqiqotlar natijasi sut tarkibidagi ftor normadan 9-13 baravar, go'shtda 0.9 foiz yuqori ekanini ko'rsatmoqda.

Alyuminiy zavodining chiqindilari aholi, birinchi navbatda, ayollar va bolalar o'rtasida turli surunkali kasalliklarning ko'payishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

Aholi orasida va hayvonot dunyosida bo'qoq, flyuoroz, osteodistrofiya, osteoporoz, osteomalyatsiya, raxit va boshqa modda almashinuvi bilan bog'liq endemik, ekzootik kasalliklarning oshganligiga tabiiy omillar emas, balki atmosferaning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi sabab bo'lmoqda.





Shuningdek, hozirgi kunda Orol tabiiy hududlari ham ekologik jihatdan qoniqarsiz ahvolda qolmoqda. Orol dengizi basseynidagi barcha suv resurslaridan to'liq va tartibsiz foydalanilish natijasida suv dengizga deyarli yetib kelmayapti. Bu esa dengiz suvining chekinishiga, buning natijasida atrofdagi yerlarning sho'rlanishiga, ekin maydonlari hosildorligining keskin pasayishiga olib kelmoqda. Orol krizisi - dengizning butunlay yo'q bo'lib ketishi insoniyat tarixidagi eng yirik, o'z ta'sir doirasiga dengiz basseynida yashaydigan 35 milliondan ortiq aholi yashaydigan hududni olgan ekologik va gumanitar halokatdir. 1994 yilga kelib Orol dengizi suv satxi ko'rsatkichi 32.5 m.gacha hajmi - 400 kub, km.dan pastga, suv yuza maydoni esa 32,5 ming. kv.km.gacha kamaydi, suvning minerallanishi ikki barobar oshdi.

Bugun bu yerda olib borilayotgan ishlar kishini lol qoldiradi. Orolbo'yi xududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi deb bejizga atashmadi. Orolning qurigan maydonida saksovol ekish ishlariga boshchilik qilish Favqulodda vaziyatlar vazirligiga topshirildi. Himoya o'rmonzorlarni barpo qilish maqsadidagi ishlar 2018 yil 17 dekabrda boshlandi. Ushbu tadbirga Qoraqalpog'iston Respublikasidan 217, respublikamizning 11 viloyatidan 290, jami 507 muxandislik va qishloq ko'rilish texnikalari Orolning qurigan maydoniga safarbar qilindi. Mo'ynoqdan 45 kilometr uzoqlikda, Orolning qurigan tubida shtab tashkil qilindi. Shu kunga qadar 77 ming 997 gektar maydonda qum saqlovchi ariqlar tortildi. 27 ming 215 gektar maydonga saksovol urug'lari sepildi va ko'chatlari o'tkazildi. Bundan tashqari, samolyotlar yordamida 18 parvoz amalga oshirilib, jami 4 ming 400 gektar maydonga saksovol urug'lari sepildi. Ushbu ishga tegishli olimlar xam jalb qilinib, tuproq taxlillari olinmoqda.

Orolning qurigan tubida o'tkazilayotgan tadbirlarga 1 ming 300 dan ortiq kishi jalb qilingan, ulardan 900 tasi ypyg' terishga va qolganlari ekishda ishtirok etmoqda.

O'tgan yili Qoraqalpog'istonga yopirilgan tuz bo'roni ko'pchilikni tashvishga solib qo'ydi. Joylarga chiqib, ushbu tuz aralash chang to'zonning qishloq xo'jaligiga zarari mutaxassislar va olimlar tomonidan o'rganilib chiqildi va tuzli qumlar qishloq xo'jaligi ekinlari barglariga o'rnashib, ustki qismini qoplab olgan hamda barglarini kuydirib, kovjiratib qo'yganligi ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng hududda bronxial astma va allergik renit kasalliklari avj oldi. Mana shunday muammolarning oldini olishda saksovolzorlar barpo qilish zarur.

Orolning qurigan tubini o'rmonzorga aylantirish ana shunday ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga yechim bo'la oladi. Ushbu muammoga tegishli chora ko'rilmaganda 20-30 yildan so'ng axvol bundan hamyomon tus olgan bo'lap edi.

Saksovol o'zidan kislorod chiqaradi va havoning ifloslanishining oldini oladi, bu - hozirgi olib borilayotgan tadbirning ekologik mazmuni. O'rmonzorlar paydo bo'lgandan keyin hududda yaylovlar paydo bo'ladi, chorvachilik rivojlanadi. Bu esa iqtisodiy masalalarga yechim bo'ladi va uning natijasida aholining ijtimoiy axvoli yaxshilanadi.





Noorganik mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, pestitsidlar va boshqa kimyoviy moddalarning yillar davomida belgilangan me'yorlardan o'nlab marotaba ortiq qo'llanilishi, axlatga moslanmagan maydonlarga chiqindilar chiqarish tuproq atmosfera xavosi, yer osti va yer usti suvlarini ifloslantirmoqda. Navoiy viloyatining Zarafshon, uchquduq shaxarlarida joylashgan chiqindixonalaridagi radioaktiv qumlarning shamol bilan tarqalishi atrof mintaqalarda ekologik xalokatni keltirib chiqarishi real xavfga aylangan.

Kuchli shamol xam insonlar xayotiga va xalq xo'jaligiga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30-90 m/s.ga yetadi.

O'rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40-60 m/s.ga, O'zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50-60 m/s.ni tashkil etadi. Kuchli shamolning paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida xavo oqimi juda katta tezlikda xarakatlanib, ba'zi joylarda u o'rama xarakatga aylanib ketadi.

Qurg'oqchilik ofati xam O'zbekistonga xos bo'lib, ilgari bunga deyarli e'tibor berilmagan. Lekin keyingi yillarda ekologiyaning xaddan tashqari buzilishi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va boshqa sabablar oqibatiga bizning mintaqada xam bunday ofat aynan hozirgi paytda kuzatilmoqda.

Qurg'oqchilikda odamlarning o'limi, daraxtlarning, ekinzorlarning ko'rishi, kuchli yong'inlarning chiqishi va turli xil kasalliklarning tarkalishiga imkoniyat yaratiladi.

Keyingi yillarda xosildor yerlar suv va shamol eroziyasi, yer osti suvlarining ko'tarilishi, qurg'oqchilik, og'ir metallar va boshqa kimyoviy zaxarli moddalar bilan ifloslanishi natijasida o'z xosildorligini yo'qotmoqda. Tuproqda zaxarli moddalarning me'yordan ortiq yig'ilib qolishi natijasida, uning fizikaviy, kimyoviy, agro- kimyoviy va biologik xususiyatlari o'zgarib ketmoqda.

Shu boisdan mintaqamizda, jumladan, respublikamizda atmosfera - atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va ekologiyani sog'lomlashtirish maqsadida, tabiatga antropogen ta'sirotlarni kamaytirish zarur. Buning uchun turli xil chiqindilar uchun maxsus joylar tashkil etish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini yanada takomillashtirish, atmosferaga zaxarli gazlar chiqishining oldini olish uchun korxonalar mo'rilarini zamonaviy fil'trlar bilan jixozlash talab etiladi. Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishida imkon qadar zaxarli moddalardan foydalanishdan voz kechish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, mintaqada joylashgan qo'shni davlatlar bilan kelishgan xolda daryolar suvlaridan rejali foydalanish, suv manbalariga iflos chiqindi suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik, qishloq xo'jaligida zaxarli kimyoviy moddalardan foydalanmaslik, o'simliklarni biologik yo'l bilan ximoya qilish usullarini yanada rivojlantirish, tabiiy qo'riqxonalar biosferasining buzilishiga yo'l qo'ymaslik muxim ahamiyatga ega.

Bu tadbirlar o'z navbatida atmosfera va atrof-muxitning og'ir metallar va zaxarli gazlar bilan ifloslanishining oldini oladi, ekologiyaning axoli salomatligiga salbiy ta'sirini kamaytiradi, suv manbalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi, ularning





ifloslanishining oldi olinadi, biologik xilma-xillik saqlab kolinadi, qishloq xo'jaligida ekologik toza maxsulotlar olinishiga erishiladi, ekologik toza biosferalar va tabiiy qo'riqxonalar saqlab qolinadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, atmosfera va atrof-muxitga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi, ularni zararsizlantirish choralarining ko'rilmaslighi, tabiiy suv manbalari va boshqa resurslardan tartibsiz foydalanish ekologik tizimga va shu orqali insoniyat salomatligi xamda xayvonot olamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda xozirdan jiddiy choralar ko'rilmasa, ekologik xalokatga, eng asosiysi insonlarning xayoti va salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekistonda atrof-muhit holatini ekologik ko'rsatkichlar asosida baholash atlas. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi. T.: 2008. – 63 b.

2.M.M. Muxitdinov, A.I. Potapov, "Ekologiya", Tashkent. "Fan", 2009, 432 b.

3.www.econews.uz-O'zbekistonning ekologik ma'lumotlar portali.

4.www.mchs.gov.uz.

5.www.Ziyo.net.uz

